



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI	158-170

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida)	205-214

Shukurov Orif Jumaboyevich

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari 215-219

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys 220-227

Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ 228-232

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI 233-237

Uliqova Mavludaxon

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI 238-243

Rahmonov Asror ibni Nusrat

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI 244-252

Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI 253-258

Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR 259-265

Vokhidova Tamanno Saidjonovna

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION 266-271

Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI 272-277

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI 278-286

Mirzaev Shukhrat Shavkatovich

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ 287-293

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL 294-301

Islombek Abdikhakimov

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES 302-309

Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ 310-315

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA 316-322

Alishaev Sobir Tursunboevich

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ	330-339

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI	398-403

Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li

Andijon davlat universiteti

"Jahon tarixi" kafedrasi o'qituvchisi

Email: sobirov88@adu.uz

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI

Annotatsiya. Bu maqolada XIX asrda dunyoni bo'lib olish yo'lidagi kurashlardan biri, yoritiladi. Hindistonni egallab olgan Britaniya imperiyasi, O'rta Osiyo hududlariga tabora kirib kelayotgan va keyinchalik, tahdid solishi mumkin bo'lgan Rossiya imperiyasidan xavotirda edi. Sharqiy Turkistonda Yoqubbek o'z hokimiyatini o'rnatgandan so'ng bevosa, ikki imperiya o'rtasidagi raqobatga tortildi. Yettishahar davlati esa rus-ingliz to'qnashuvidan foydalanishga harakat qildi.

Kalit so'zlar: Sharqiy Turkiston, Yettishahar davlati, Yoqubbek Badavlat, rus-ingliz raqobati, "Katta o'yin", Usmonli imperiyasi, Ili vodiysi, savdo munosabatlari, harbiy quollar, razvedka.

Sobirov Sardorbek Abdusattor oglı

Andijan State University

Teacher of the "World History" department

THE RIVALRY OF THE RUSSIAN AND BRITISH EMPIRES IN EAST TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Abstract. This article highlights one of the struggles of the 19th century to divide the world. The British Empire, which occupied India, was concerned about the Russian Empire, which was entering tabora into Central Asian territories and, later, could pose a threat. In Eastern Turkestan, Yakub Beg was directly subject to competition between the two empires after establishing his authority. The seven-city state, on the other hand, tried to take advantage of the Russo-English conflict.

Key words: East Turkestan, Yettishar, Yakub Beg, Russian-English competition, "Great Game", the Ottoman Empire, Ili Valley, trade relations, military weapons, intelligence.

Собиров Сардорбек Абдусаттор угли

Андижанский государственный университет

Преподаватель кафедры «Всемирная история»

СОПЕРНИЧЕСТВО РОССИЙСКОЙ И БРИТАНСКОЙ ИМПЕРИЙ В ВОСТОЧНОМ ТУРКЕСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Аннотация. В этой статье будет освещена одна из битв на пути к разделению мира в XIX веке. Британская Империя, оккупировавшая Индию, была обеспокоена Российской империей, которая все больше вторглась на территории Средней Азии и, следовательно, могла представлять угрозу. После того, как Якуббек установил свою власть в Восточном Туркестане, он был втянут в прямое соперничество между двумя империями. А государство Йеттишар пыталось воспользоваться русско-английским конфликтом.

Ключевые слова: Восточный Туркестан, Государство Йеттишар, Якуб бек Бадаулет, русско-английское соперничество, “Большая игра”, Османская империя, Илийская долина, торговые отношения, военное оружие, разведка.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N04>

Sharqiy Turkistonda Rossiya va Britaniya o'rtasidagi raqobat, avvalambor, ularning imperialistik ambitionsiyalari va geosiyosiy manfaatlardan kelib chiqqan edi. Har ikki davlat strategik jihatdan O'rta Osiyoga yaqin joylashgan mintaqada o'z ta'sirini kengaytirishga intildi. XIX asr boshida jahon tarixida xalqaro munosabatlar yanada keskinlashdi. Dunyoning yirik imperiyalari o'rtasida mustamlakalarga ega bo'lish, ulkan xom-ashyo zaxiralari ustidan nazorat o'rnatish hamda strategik ahamiyat kasb etuvchi mintaqalarda o'z mavqelarini yanada mustahkamlash asosiy vazifaga aylandi. Shunday hudud sanalgan Turkiston o'lkasi ham bu kurashlardan chetda qolmadi. Mazkur mintaqada siyosiy manfaatlarning to'qnashuvini qator sabablari bor edi. Ushbu omillar, avvalo, qulay geografik sharoit, ikkinchidan katta miqdordagi iqtisodiy manbalarning mavjudligi, uchinchidan esa kelgusidagi harakatlar uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanar edi [5; 5-b.].

Rossiyaning O'rta Osiyoga ekspansiyasi “Katta o'yin” siyosatining bir qismi bo'lib, uning maqsadi Britaniya imperiyasining mintaqadagi ta'siriga qarshi turish hamda, Britaniyaning janubiy hududlariga bo'lgan potensial yurishlariga qarshi bufer zonani ta'minlashga qaratilgan edi. Rossiya imperiyasi Nikolay I boshchiligidida XIX asrda sharqqa qarab yurish boshladi. Ularning pirovard maqsadi asosiy savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatish va qimmatli manbalarga ega bo'lish edi. Britaniya imperiyasi ham Janubiy Osiyoda mustahkam o'rashgan holda, o'z mustamlakalarini himoya qilibgina qolmasdan balki, Turkiston hududiga katta qiziqish bilan kirib kela boshladi.

XIX asrda Sharqiy Turkistonda rus-engliz raqobati haqida manbalar va adabiyotlar miqdori salmoqli hisoblanadi. “Katta o'yin” siyosati davrida va undan keyingi “Sovuq urush” davrida ko'plab harbiylar, tarixchilar, sayohatchilar, jurnalistlar va boshqa soha vakillari tomonidan qiziqarli adabiyotlar, maqolalar chop etildi. Rus tarixchilari Ch.Valixonov, N.Veselovskiy, M.Terentyev, N.Xalfin, D.Isiyev, V.Moiseyevlar asarlarida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga kirib kelishi, elchilar jo'natalishi, bosib olishi va amalga oshirilgan ekspeditsiyalar haqida ma'lumot beradi. Ingliz tilida M.Forsayt, G.Geyuord, P.Hopkrik, Hodong Kimlarning asarlarida ham ingliz ekspeditsiyalari, elchilik munosabatlar va kelishuvlar haqida ma'lumot beriladi.

XIX asr 60-yillar oxirida Sharqiy Turkistondagi mavjud siyosiy vaziyatdan unumli foydalangan Yoqubbek hududda o'z mavqeyini yanada mustahkamlab oladi. Bu jihat yirik davlatlarni unga nisbatan olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur qildi. Endi Qoshg'ar Rossiya, Angliya va Turkiyaning o'z ta'sir doiralariga olish yo'lidagi kurashda geosiyosiy maydonga aylandi. Mazkur davrda Rossiya uchun Qoshg'ar savdo aloqalari uchun muhim sanalsa, Yoqubbek uning davlati rasmiy tanilishidan manfaatdor bo'lgan. Hatto Badavlat manjurlarga qarshi kurashish yo'lida ruslardan qurol sotib olishga umid qilgan edi [5; 63-b.].

Angliya Sharqiy Turkistonda o'z ta'sirini kuchaytirishga intildi, XIX asrning 40-yillarida Panjobni bosib oldi va nihoyat, oldinga siljish uchun Afg'oniston va O'rta Osiyoga yo'l ochildi. Rossiyaning xatti-harakatlarini doimiy kuzatib bordi, inglizlar har qanday holatda ruslarni Yoqubbekka bo'ladigan ta'sirini kuchayishiga qarshi edi. Bu kurashda London Yoqubxon,

Qoshg'ar hukmdori yaqinlari va tarafdarlariga tayandi. Rossiya va Angliya uchun Sharqiy Turkiston nafaqat savdo bozori, balki strategik ko'prik sifatida ham muhim edi. Yettishahar davlati atrofidagi kurash Osiyodagi ingliz-rus raqobatining eng keskin daqiqalaridan biri bo'ldi [3; 34-b.].

Dastlab, Yoqubbek Yettishahar davlatining joylashuvini hisob olib, Rossiya imperiyasi bilan yaqinlashishga harakat qila boshladi. Chunki Rossiya imperiyasi uning davlatini tan olishi, Yoqubbekka katta imkoniyatlarni ochib berardi. Jumladan, u davlatini zamonaviy qurollar bilan ta'minlab olishi, keyinchalik manjurlarga qarshi kurashishda Rossiyaga tayanishi, ingliz bosqiniga qarshi turishi mumkin edi.

1867-yil yozida Yoqubbek butun Qoshg'ariyani zabit etganida, uning Markaziy Osiyoda ikki buyuk davlat o'rtasidagi raqobatga aralashmaslik imkonsiz edi. U dastlab Rossiya bilan barcha siyosiy va tijorat aloqalarini to'xtatishga harakat qildi. U savdo orqali kirib kelishini, harbiy kengayish bilan davom etishini tushungan bo'lishi mumkin. Rossiya Yoqubbek siyosatiga toqat qila olmadi, chunki u Xitoy hukumatidan muhim savdo imtiyozlariga ega edi [2; 139-b.] 1867-yili yozida polkovnik V.Poltoraskiy yuborgan vakilni qabul qilib, ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarini yo'lga qo'yish taklifini qo'llab-quvvatlaydi. Tez orada Verniy shahriga Badavlat o'zining shaxsiy munshiysi To'ra Oxunni jo'natgan. V.Poltoraskiyning ushbu uchrashuv to'g'risida yuborgan rapportida ta'kidlanishicha, Yoqubbek tomoni ruslar uchun Qoshg'arda karvonsaroy ochishga, hatto xavfsizlikni ta'minlash maqsadida rus karvonlarini otliqlar bilan kuzatib manzilga bexatar yetkazishni ham o'z zimmasiga oladi. Biroq, rus tomoni bildirgan javobdan Yoqubbekni ko'ngli to'lмаган. Shunday bo'lsa-da 1868-yili Toshkentga endi general-gubernator Kaufman huzuriga elchi Shodi Mirzoni jo'natadi. Bundan ko'zlangan maqsad Rossiya tomonidan Yettishahar davlatini mustaqil davlat sifatida tan olinishiga erishishdan iborat bo'lgan [5; 32–33-b.]. Rossiya hukmron doiralari Yoqubbek davlati bilan manfaatli savdo aloqalarini rivojlantirishga rozilik bildirdi, lekin Yettishahar davlatini tan olishga oshiqmadi, agar Sharqiy Turkiston hududidagi davlatni tan olsa Xitoy bilan tuzilgan Pekin shartnomasini bekor qilgan bo'lardi. Rossiya Sin imperiyasi bilan urush olib borishni xohlamasdi, Sharqiy Turkistonni Xitoyning tarkibiy qismi deb bildi.

1868-yil oxirida Yoqubbek Rossiya bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish istagini yana bir bor ko'rsatdi. Yoqubbek garchi faol savdo aloqalarni boshlash borasida dastlab jiddiy qarorlar qabul qilmasa-da, biroq ruslar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga qat'iy amal qiladi. Jumladan, 1868-yil oxirida To'qmoq uyezdida Usmon va Qo'ychi boshchiligidagi bir necha qirg'izlar ruslarga tegishli mol-mulklarini olib ketadi. General Kolpakovskiy ularni jazolash hamda olib ketilgan narsalarni qaytarishni Badavlatdan talab qiladi. Albatta, qirg'izlar ushlanib o'ljalarni rus hukumatiga topshirishgan [3; 37-b.]. Yoqubbek Rossiya bilan faol savdo aloqalarini olib bordi, biroq Rossiya imperiyasi diplomatik munosabatlarni Yettishahar davlati bilan keng miqyosda olib borishdan voz kechdi. Buni anglab yetgan Yoqubbek janubdag'i qo'shnisi inglizlar bilan aloqa o'rnatib, o'zining xavfsizligini har tarafdan mustahkamlamoqchi bo'ldi. Yoqubbekning maqsadi Rossiya va Angliya o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan foydalanib, ikki yirik imperiyadan birini ittifoqchi qilib olmoqchi edi. 1868-yil oxirida uning safdoshi Shodi Mirzo nafaqat inglizlar, balki Turkiya bilan ham aloqa o'rnatish maqsadida, Hindiston vitse-qiroli huzuriga diplomatik missiyaga boradi.

Britaniya rasmiylari imkoniyatdan foydalanishga qaror qilishdi. Robert Shou 1868-yil dekabr oyida Otaliq G'ozi hukmronligidagi Kichik Buxoro (Qoshg'ar)ga kelgan birinchi ingliz

bo'ldi. Uni juda samimiy kutib olishdi. Qo'qonlik(Yoqubbek tarafдорлари)larning barcha ulug' zotlari uni do'st va birodar sifatida qabul qildilar, hatto podshohlikning ikkinchi odami bo'lgan yorkentlik Dodxoh Muhammad Yunus ham unga juda samimiy munosabatda bo'ldi. Shuni yod etish kerakki, R.Shou u yerga hech qanday rasmiy maqomsiz va oddiygina ingliz sayohatchisi sifatida borgan bo'lsa-da, Qoshg'arda uch oylik tanaffus vaqtida Yoqubbek uni uch marta qabul qilib, do'stona suhbatlar qurdi [1; 215-b.].

Hindiston bilan Qoshg'ar o'rtaida savdo aloqalarini rivojlantirish bahonasida inglizlar g'arbiy Xitoyda ruslarga qarshi Yoqubbek boshchiligidagi kaolitsiyani shakllantirishni ko'zlagan edilar. Shu jihatdan Pomir va Qoshg'ardagi vaziyatni atroficha joyida tahlil etish maqsadida, 1868-yil oxirida G.Geyuord Yorkend va Qoshg'arga keladi. Hindistondagi inglizlar hukumati topshirig'ini bajarib, Yoqubbek bilan shaxsan uchrashishga muvaffaq bo'ladi [4; 36-b.].

Rossiya poytaxtida R.Shouning Qoshg'arga kelishi haqida har xil xabarlar tarqaldi, ruslar inglizlar kirib kelganidan xavotirga tushdi.

1869-yil 20-oktabrda Peterburgda harbiy vazir D.Milyutin va D.Forsaytlar o'rtaida, shuningdek Osiyo departamenti direktori ishtirok etgan yig'ilishda ikkala tomon quyidagi qarorga kelishadi: "1) Hozirgi vaqtda haqiqatda Sheralixon hukmronlik qilayotgan hududlar Afg'onistonning chegarasi sifatida tan olinadi. O'zining chegarasini shimolga tomon kengayishiga yo'l qo'ymasligi uchun Angliya barcha choralarini tatbiq etadi. 2) O'z navbatida Rossiya Buxoro amirligining chegaralarini qo'shni Afg'oniston hududi hisobiga kengaytirishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'zining ta'siridan foydalanadi. 3) Agarda, keyinchalik, Rossiya Buxoroga qarshi dushmanlarcha harakat qilishga majbur bo'lsa va barcha xonlik yoki uning bir qismini egallab olish xohishidan qat'iy nazar, Afg'onistonga nisbatan bosib olish harakatlarini amalgalashmaydi. Angliya esa o'z navbatida, afg'on podshohi o'zining shimoliy qo'shnilarini tashvishga qo'yishiga yo'l qo'yamaydi"... uchrashuvda Afg'onistondan tashqari Qoshg'ar muammosi ham ko'tarilgan edi. Ikkinci xatda asosan savdo-sotiqlar masalalari bo'lib o'tgan tortishuvlar bayon qilinadi. Ya'ni kun tartibida ingliz tovarlarini O'rta Osiyoga kiritish yoki kiritmaslik haqidagi muammo turar edi. Forsayt ingliz tovarlarini kirgizmaganligidan norozi bo'lib, hozirda bojxona ta'riflari bo'lmasa, vaqtinchalik ta'rif, keyinchalik, esa erkin savdoni yo'lga qo'yishni taklif etadi. Aytish mumkinki, D.Forsayt bilan bo'lgan muzokaralar Afg'oniston bilan bo'lgan tortishuvlarning bиринчи bosqichi bo'lib, u 1869–1873-yillargacha davom etadi. Peterburgdag'i missiyasini yakunlagan D.Forsayt 1870-yili Qoshg'arga yo'l oladi. Yoqubbekning yaqin odamlaridan bo'lgan Mirza Ahmadning aytishicha, uning maqsadi Qoshg'arda ingliz vakolatxonasini ochishdan iborat bo'lgan. Biroq Yoqubbek Urumchi xoniga yurishda bo'lganligi sababli, u bilan uchrashmasdan qaytib ketadi [5; 39–40-b.].

Ko'p o'tmay, 1871-yilning yozida Rossiya navbatdagi olg'a yurishini boshladi. Bu hodisa yuz bergen joy uzoqda ekani tufayli britaniyaliklar uch oydan keyingina xabar topdi... Qashqar hukmdorining bu yerlarni bosib olishiga ishongan yoki shunday deb da'vo qilgan Kaufman Rossianing janubiy sarhadlarini xavf ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan har qanday yurishning oldini olish maqsadida o'z qo'shinini u erga yubordi... 24-iyun kuni ruslar dovonlar orqali Ili hududiga yurish qilib, o'zlaridan ikki baravar ko'p qo'shinni mag'lub etdi. Xitoyliklarga rus shohi qo'shnilarini Ili hududini Xitoy imperatori uchun qo'zg'ononchilar changalidan tortib olgani va u hududni Yoqubbek yoki boshqa bosqinchilardan himoya qila oladigan darajaga yetmagunicha ushlab turishlarini tushuntirishdi. Xitoyliklar bu yolg'onga chuv tushmadi va

G'uljani darhol qaytarishlarini talab qildilar. Sankt-Peterburg bundan bosh tortdi va ikki qudratli davlat o'rtasidagi munosabatlar juda sovuq tus ola boshladi. Pekinning ko'nglini qoldirishdan ortiq xavotirlanmagan rus hukumati Yoqubbek bilan uning davlatini tan olish va savdoga oid muzokaralarni qayta boshlashga qaror qildi. 1872-yilning bahorida ruslar bir katta siyosiy zabitni Yoquzbekning Qashqardagi saroyiga yubordi. U musulmon hukmdoriga britaniyaliklarni bu yerlardan siqib chiqarishga majbur qiladigan maxsus imtiyozli shartlar bilan o'z bozorlarini rus tovarlariga ochib berishi evaziga davlatini tan olish taklifini bildirishi kerak edi. Bu safargi muzokaralar muvaffaqiyatli o'tdi yoki ruslarda shunday taassurot qoldirdi [6; 482–483-b.].

Yoquzbek 1873-yilda Turob Xo'jani Peterburgga jo'natadi, unga Yettishaharning Rossiyada tan olinishiga erishish va rus-qoshg'ar chegara chizig'ini belgilash masalasini muhokama qilish vazifasi yuklanadi. Lekin bu missiya ham ijobiy yakunlanmadı, ya'ni Rossiya doimiy muloqotini saqlab qoldi. Yoquzbek nihoyat, bir tomonlama siyosat olib borishga ahd qildi.

1873-yili ingliz-hind hukumati topshirig'i bilan D.Forsayt missiyasi Sharqiy Turkistonga tashrif buyuradi. Garchi elchilikni maqsadi savdo aloqalar o'rnatishdan iborat, deb ta'kidlansa-da, lekin ularning bosh maqsadi sifatida rus-qoshg'ar chegaralarini o'rganish, qurol-yarog'dan yordam berishga Yoquzbekni ko'ndirish va shu orqali Rossiya imperiyasini Farg'ona vodiysidagi ta'sirini yo'qotish ko'zlangan edi. Missiya 300 kishidan iborat bo'lib, o'zi bilan birga qirolicha Viktoriya va Hindiston vitse-qiroli nomalarini ham olib kelgan edi. Garchi savdo aloqalarini tiklashni maqsad qilgan missiya tarkibi asosan razvedkachilar va topograflardan iborat bo'lgan. 1873-yili dekabrda Qoshg'arga yetib kelgan inglizlar bir necha marta Yoquzbek bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Natijada 1874-yili fevral oyida Angliya va Yettishahar o'rtasida savdo shartnomasi imzolanadi [5; 65–66-b.].

Mazkur kelishuv Angliyaga mintaqada keng imkoniyatlar yaratish uchun xizmat qilar edi. Ular endi G'arbiy Xitoy ishlariga ham faol aralashishi mumkin edi. Shu bilan birga ular amir askarlari uchun qurol-yarog' va harbiy aslahalardan yordam ko'rsatdilar. Shundan keyin Yettishahar hukmron doiralari Rossiyaga nisbatan o'z munosabatlarini keskinlashtirishgan, rus savdogarlariga sun'iy tarzda to'siqlar qo'yib, rus karvonlarini talashni boshlashgan. Shu vaqtning o'zida Yoquzbek inglizlar yordami bilan Turkiya bilan yaqinlashgan. Turkiya sultonı Yoquzbekni "amir" deb atagan, Turkiyadan Yettishaharga harbiy yo'riqchilar kela boshlagan [7; 48-b.].

1873-yilda Yoquzbek elchisi Said Yoqubxonni aloqalarni mustahkamlash maqsadida Hindistonga jo'natgandi. Said Yoqub-xon Hindiston vitse-qiroli huzuriga tashrif buyurdi, u bilan Yettishaharni tan olish va qurol sotib olish bo'yicha muzokaralar olib bordi, shundan so'ng u Turkiyaga jo'nadi, u yerda Yoquzbek nomidan turk sultonini tan oldi. Angliya va Turkiya har jihatdan Yoquzbek davlatini qo'llab-quvvatlay boshladi.

Tez orada Britaniya hukumati xususiy firmalarga Qoshg'arga qurol yetkazib berishga rasman ruxsat berdi. D.Forsaytning Yettishaharga tashrifidan so'ng polkovnik Gardner 20 ming mushket bilan keldi. 1875-yilda ingliz hukumati Sharqiy Turkistonga Yorkendga jo'natish uchun mo'ljallangan ikki yuz quti revolver yuborish xarajatlarini o'z zimmasiga oldi. Konstantinopoldagi rus elchixonasining o'sha paytdagi xodimining so'zlariga ko'ra, "Ost-hind hukumati Qoshg'arni Yoquzbek qo'shinlarini ruslarga qarshi qurollantirish uchun ingliz arsenaliga aylantirishni orzu qilgan" [3; 43-b.].

Qanday bo'lmasin Britaniya imperiyasi Yettishahar davlatini harbiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga harakat qildi. Yoqubbek davlati Rossiya tomonidan bosib olinsa yoki Xitoy hokimiyatini qayta tiklasa, Britaniya strategik jihatdan mag'lubiyatga uchragan bo'lardi. Angliya Sharqiy Turkistonni Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini ta'minlash va Rossiya ustidan ustunligini saqlab qolish uchun asosiy hudud sifatida ko'rди. U mahalliy hukmdorlarning qo'llab-quvvatlashi va o'z manfaatlari doirasini shakllantirish orqali ushbu mintaqada o'sib borayotgan Rossiya ekspansiyasiga qarshi muvozanat yaratishga harakat qildi.

Rossiya ham Hind okeaniga chiqish va O'rta Osiyo orqali o'tadigan savdo yo'llarini nazorat qilish uchun Sharqiy Turkistonda Angliya bilan raqobat qildi. Rossiya Xitoy bilan imzolangan Pekin shartnomasiga sodiqligicha qoldi va Yettishahar davlati bilan aloqalarda savdo bilangina cheklandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Sharqiy Turkistonda Rossiya va Angliya o'rtasidagi raqobat ularning imperialistik ambitionsiyalarini va geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan edi. Ikkala kuch ham o'z hududlarini himoya qilish va bir-birining olg'a siljishlariga qarshi turish uchun mintaqada o'z ta'sirini kengaytirishga intildi. Bu raqobat oxir-oqibat Sharqiy Turkistonning siyosiy dinamikasiga ta'sir qildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Boulger D.Ch. The life of Yakoob Beg; Atalik ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar. – London, 1878. –P.345.
2. Hodong Kim. Holy war in China: the Muslim rebellion and state in Chinese Central Asia, 1864–1877. – Stanford, California: Stanford University Press, 2004. –P.316.
3. Исиев Д.А. Уйгурское государство Йэттишар (1884-1877). –Москва: Наука, 1981. – С.94.
4. Халфин Н.А. Английская колониальная политика на Среднем Востоке. – Ташкент: САГУ, 1957. – С.256.
5. Ураков Д.Ж. Туркистон генерал-губернаторлигининг қўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. –Тошкент, 2021. – 212 б.
6. Ҳопкрик П. Катта ўйин: Икки империя тўқнашуви. Таржимон Шодиёр Нишонбоев. – Тошкент: NIHOL, 2022. – 744 б.
7. Эгамбердиев И. Англия ва Россиянинг Марказий Осиёда мустамлакачилик сиёсатидаги ракобатлари. –Тошкент: «Камалак», 2018. –120 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).